

---

## “Bezoriilik bilan bog‘liq hamda badanga og‘ir jikast yetkazish jinoyatini oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish va fuqarolar madaniyatini oshirish hamda yangi qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati”ni keng jamoatchilik

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan ilgari surilgan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasi rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli ximoya qilish kafolatlarini kengaytirish, odil sudlovga erishish darajasini, sud ish yurituvining samaradorligi va sifatini oshirish bo‘yicha belgilangan aniq vazifalar haqida ma‘lumot berdi. Bosqinchilik jinoyati tushunchasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi JK ning 20-bobiga aloxida jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar qilishdan iborat. Jinoyat majmui sifatida bob kiritilgan bo‘lib, JKning 277-moddasini o‘z ichiga olishini, ushbu harakatlarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan. Bezoriilik, ya‘ni jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do‘pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o‘zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha miqdorda zarar yetkazish bilan bog‘liq xolda sodir etilishini, jinoyatning aybining bila turib sodir etilgan qasd shakli bilan tavsiflanishi, shu kabi jinoyatlarni sodir qilgan shaxslarga nisbatan jinoyat ishlari bo‘yicha Bag‘dod tuman sudida jinoyat ishi mazmunan ko‘rib chiqib, jazo muqarrarligi ta‘minlanganligini, o‘tgan yilga nisbatan bezoriilik moddasi bo‘yicha 1 ta jinoyat sodir etilganligini, mazkur toifadagi jinoyatlarni sodir qilinishini oldini olish maqsadida tuman hududida fuqarolar o‘rtasida profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish, hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish kabi ishlarni mahalla fuqarolar yig‘ini raisi faollari hamda keng jamoatchilik bilan birga amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bo‘limida shaxsga qarshi jinoyatlarning bir necha turi uchun javobgarlik nazarda tutilgan bo‘lib, ular bevosita obyekt bo‘yicha quyidagi guruhlariga ajratilganligini, ya‘ni;

1) Hayotga qarshi jinoyatlar; 2) Sog‘liqqa qarshi jinoyatlar; 3) Hayot yoki sog‘liq uchun xavfli jinoyatlar; 4) Jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar; 5) Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar; 6) Shaxsning ozodligi, sha‘ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar; 7) Fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlarga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasi JKning 104-111-moddalarida sog‘liqqa qarshi jinoyatlar turi hamda ularga nisbatan jazo choralari belgilab qo‘yilgan. Bular:

Qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (104-m), Qasddan badanga o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (105-m), Kuchli ruhiy hayajonlanish holatida qasddan badanga og‘ir yoki o‘rtacha og‘ir shikast yetkazish (106-m), Zaruriy mudofaa chegarasidan chetga chiqib, qasddan badanga og‘ir shikast yetkazish (107-m), Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlarashning zarur choralari chegarasidan chetga chiqib, badanga qasddan og‘ir shikast yetkazish (108-m), Qasddan badanga yengil shikast yetkazish (109-m), Qiyinash (110-m), Ehtiyotsizlik orqasida badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazish (111-m). JK maxsus qismining 1-bo‘lim 18 bobida transport harakati va undan foydalanish xavfsizligiga qarshi jinoyatlar ko‘rsatilgan bo‘lib, ushbu bob o‘z ichiga 260-269-moddalarni olishini, [OKO3:

1.09.00.00.00 Тадбиркорлик ва хўжалик фаолияти / 09.15.00.00 Транспорт / 09.15.05.00 Ҳаво транспорти / 09.15.05.07 Ҳаво транспортининг хавфсизлиги;

2.09.00.00.00 Тадбиркорлик ва хўжалик фаолияти / 09.15.00.00 Транспорт / 09.15.13.00 Аварияга қарши кураш. Йўл ҳаракати хавфсизлиги. Техник кўрик (шунингдек, 16.04.02.00га қаранг);

3.16.00.00.00 Хавфсизлик ва ҳуқуқ тартибот муҳофазаси / 16.04.00.00 Жамият хавфсизлиги / 16.04.02.00 Йўл ҳаракати хавфсизлиги. Парвозлар хавфсизлиги]

260-moddada Temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportining harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyati, ya‘ni Transport vositasining harakat yoki undan foydalanish xavfsizligi qoidalarining temir yo‘l, dengiz, daryo yoki havo transportini boshqaruvchi shaxs tomonidan buzilishi badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lishi tushunilishi lozim.

---

**Ma'ruza qiluvchi:**

**Jinoyat ishlari bo'yicha**

**Bog'dod tuman sudining raisi**

**Mirsadikov Oybek Anvarjonovich**

2021-12-30 10:53:33